Abstract. This article analyzes the impact of national currency exchange rate dynamics on economic growth using Uzbekistan as a case study. The study examines the average exchange rate of the US dollar against the Uzbek soum, real GDP growth rates, and inflation indicators for the period from 2018 to 2025. The results show that a sharp depreciation of the national currency, while providing relative advantages to exporters in the short term, may negatively affect economic growth through increased production costs in import-dependent sectors, intensified inflationary pressure, and greater investment uncertainty. The scientific novelty of the article lies in the fact that the impact of exchange rate changes on economic growth is assessed not only from the perspective of "export stimulation" but also comprehensively through the channels of import costs, inflation, and macroeconomic stability.

Key words: national currency, exchange rate, economic growth, GDP, inflation, foreign exchange policy, macroeconomic stability.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние динамики обменного курса национальной валюты на экономический рост на примере Узбекистана. В исследовании рассмотрены среднегодовой курс доллара США по отношению к суму, темпы роста реального ВВП и показатели инфляции за 2018–2025 годы. Результаты анализа показывают, что резкое обесценение национальной валюты, несмотря на создание относительных преимуществ для экспортёров в краткосрочном периоде, может оказывать негативное влияние на экономический рост через увеличение производственных затрат в импортозависимых отраслях, усиление инфляционного давления и рост инвестиционной неопределённости. Научная новизна статьи заключается в том, что влияние изменения обменного курса на экономический рост оценивается не только с позиции «стимулирования экспорта», но и комплексно — через каналы импортных издержек, инфляции и макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: национальная валюта, обменный курс, экономический рост, ВВП, инфляция, валютная политика, макроэкономическая стабильность.

## KIRISH

Milliy valyuta kursi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Valyuta kursining o'zgarishi eksport va import hajmi, ichki narxlar darajasi, investitsion faollik, tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari hamda aholining real xarid qobiliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy valyuta kursi dinamikasini iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda valyuta bozorini liberallashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish hamda monetar siyosatni takomillashtirish yo'nalishlarida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi iqtisodiyotda narx

signallarining aniqligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini kuchaytirish va investitsion muhitning jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, milliy valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy subyektlar faoliyatida prognozlash imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 1 849,7 trln so‘mni tashkil etib, real o‘sish sur’ati 7,7 foizga yetgan [1]. 2024-yil uchun yangilangan statistik qatorlarda esa YaIM hajmi 1 535,4 trln so‘m sifatida qayd etilgan [1]. Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida yuqori o‘sish sur’atlari va makroiqtisodiy faollikning izchil davom etayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, valyuta kursi, inflyatsiya va tashqi iqtisodiy omillar o‘rtasidagi muvozanatni samarali boshqarish iqtisodiy o‘sish barqarorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Milliy valyuta kursining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganish bir necha jihatdan dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, O‘zbekiston iqtisodiyotida import qilinadigan texnologiyalar, asbob-uskunalar, xomashyo va butlovchi qismlarning muhim ulushga ega ekanligi milliy valyuta kursi barqarorligini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog‘laydi. Ikkinchidan, valyuta kursidagi o‘zgarishlar ichki narxlar barqarorligi va inflyatsion jarayonlarga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Uchinchidan, barqaror valyuta siyosati investorlar ishonchini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsion loyihalarni rivojlantirish hamda iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy bank ma’lumotlarida AQSH dollarining so‘mga nisbatan davr bo‘yicha o‘rtacha kursi alohida statistik qator sifatida muntazam e’lon qilib boriladi [2]. Mazkur statistik ma’lumotlar valyuta kursi dinamikasini iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi milliy valyuta kursi dinamikasining O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash, valyuta kursi o‘zgarishining asosiy ta’sir kanallarini aniqlash hamda valyuta siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Valyuta kursi dinamikasining iqtisodiy o‘sishga ta’siri xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda muhim ilmiy masalalardan biri sifatida qaraladi. Paul Krugman, Maurice Obstfeld va Marc Melitzning xalqaro iqtisodiyot nazariyasiga oid tadqiqotlarida valyuta kursi eksport va import narxlari orqali tashqi savdo balansiga ta’sir qilishi ta’kidlanadi. Milliy valyutaning qadrsizlanishi eksport mahsulotlarining tashqi bozordagi nisbiy raqobatbardoshligini oshirishi mumkin, biroq importga bog‘liq iqtisodiyotlarda bu jarayon ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi orqali salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi [9].

World Bank va International Monetary Fund ma’lumotlarida valyuta kursi barqarorligi makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu manbalarda valyuta kursidagi keskin tebranishlar inflyatsiya, investitsion muhit va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir qilishi mumkinligi qayd etiladi [6], [7].

Asian Development Bankning O‘zbekiston bo‘yicha tahlillarida iqtisodiy o‘sish sur’atlari investitsion faollik, tashqi savdo, sanoat va xizmatlar sohasi rivojlanishi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy sharoitlar, import narxlari va valyuta kursi dinamikasi iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi [8].

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursining iqtisodiy o‘sishga ta’siri bir tomonlama emas. U eksport raqobatbardoshligi, import xarajatlari, inflyatsiya, investitsion noaniqlik va tashqi savdo tarkibi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida valyuta kursi dinamikasini iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq holda kompleks tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda milliy valyuta kursi dinamikasining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashda tizimli, statistik, taqqoslama va omilli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, World Bank, International Monetary Fund hamda Asian Development Bank tomonidan e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etdi. Statistik ko‘rsatkichlar o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan holatlarda milliy hisoblar tizimi bo‘yicha rasmiy vakolatli organ hisoblangan Statistika agentligi ma’lumotlariga ustuvorlik berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilda AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rtacha yillik kursi, real yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati, inflyatsiya darajasi, tashqi savdo ko‘rsatkichlari hamda valyuta siyosati bilan bog‘liq monetar indikatorlar o‘zaro

bog‘liqlikda o‘rganildi. Valyuta kursining iqtisodiy o‘sishga ta’siri bevosita va bilvosita kanallar orqali izohlandi. Bevosita ta’sir eksport va import narxlari orqali, bilvosita ta’sir esa inflyatsion kutilmalar, ishlab chiqarish xarajatlari, investitsion qarorlar, tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari hamda aholining real xarid qobiliyati orqali baholandi.

Tadqiqotda milliy valyuta kursi o‘zgarishlari iqtisodiy o‘sishning yagona omili sifatida emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik, monetar siyosat, tashqi savdo tarkibi va ishlab chiqarishning importga bog‘liqligi bilan uzviy aloqador ko‘rsatkich sifatida tahlil qilindi.

Qo‘shimcha ravishda maqolada AQSH dollarining so‘mga nisbatan yillik o‘sish sur’ati hisoblandi hamda 2019–2025-yillar kesimida valyuta kursi dinamikasi bilan real YalM o‘sishi, inflyatsiya, eksport, import va asosiy kapitalga investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar oddiy Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar milliy valyuta kursi o‘zgarishlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatib, iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq tushunish imkonini berdi. Shu bilan birga, kuzatuvlar sonining cheklanganligi inobatga olinib, korrelyatsion natijalar qat’iy sabab-oqibat munosabatlarini ifodalovchi yakuniy xulosa sifatida emas, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiluvchi dastlabki statistik diagnostika sifatida talqin qilindi.

Statistik tahlil

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda YalMning real o‘sish sur’atlari ijobiy dinamikani saqlab kelmoqda. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda YalM hajmi 861,2 trln so‘mni, 2022-yilda 1 041,9 trln so‘mni, 2023-yilda 1 261,8 trln so‘mni, 2024-yilda 1 535,4 trln so‘mni va 2025-yilda 1 849,7 trln so‘mni tashkil etgan [1]. 2025-yilda real iqtisodiy o‘sish sur’ati 7,7 foizni tashkil etgan [1] (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda valyuta kursi, inflyatsiya, tashqi savdo va investitsiya ko‘rsatkichlari dinamikasi[1]

| Yil | Kurs, so‘m | Kurs o‘sishi, % | Real YalM o‘sishi, % | Inflyatsiya, % | Eksport, mln $ | Import, mln $ | Investitsiya, mlrd so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2018 | 8 079,9 | — | 5,4 | 14,3 | 14 257,9 | 19 172,1 | 124 231,3 |
| 2019 | 8 883,6 | 9,9 | 5,7 | 15,2 | 17 458,7 | 24 292,3 | 195 927,3 |
| 2020 | 10 094,2 | 13,6 | 2,0 | 11,1 | 15 102,3 | 21 153,8 | 210 195,1 |
| 2021 | 10 625,4 | 5,3 | 8,2 | 10,0 | 16 662,8 | 25 507,7 | 239 552,6 |
| 2022 | 11 049,8 | 4,0 | 6,1 | 12,3 | 19 732,6 | 30 767,8 | 266 240,0 |
| 2023 | 11 755,0 | 6,4 | 6,3 | 8,8 | 24 869,5 | 38 659,1 | 356 071,4 |
| 2024 | 12 647,6 | 7,6 | 6,7 | 9,8 | 26 948,2 | 38 985,8 | 507 490,2 |
| 2025 | 12 516,5 | –1,0 | 7,7 | 7,3 | 33 812,3 | 47 354,5 | 591 141,0 |

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2018–2024-yillarda AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rtacha kursi 8 079,9 so‘mdan 12 647,6 so‘mgacha oshgan. Eng yuqori yillik o‘sish 2020-yilda kuzatilib, kurs 13,6 foizga ko‘tarilgan. Mazkur davrda real YalM o‘sish sur’atining 2,0 foizgacha pasaygani valyuta kursi tebranishlari, pandemiya shoki hamda tashqi iqtisodiy noaniqliklarning iqtisodiy faollikka bir vaqtda ta’sir qilganini ko‘rsatadi. 2025-yilda esa jadvaldagi kurs 1,0 foizga pasayib, nisbiy barqarorlashuv kuzatilgan.

2025-yilda YalMning 7,7 foizga o‘sishi ichki talab, investitsion faollik, xizmatlar sohasi va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi bilan izohlanadi. Shu yilda inflyatsiya 7,3 foizni, eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollarini, import hajmi 47,4 mlrd AQSH dollarini, asosiy kapitalga investitsiyalar esa 591,1 trln so‘mni tashkil etdi. Bu holat iqtisodiy o‘sishni faqat valyuta kursi dinamikasi bilan emas, balki investitsiyalar, tashqi savdo va narxlar barqarorligi kabi omillar majmui orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil

Valyuta kursining yillik o‘sish sur’ati bilan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni dastlabki baholash maqsadida Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Hisob-kitoblar 2019–2025-yillar bo‘yicha 7 ta kuzatuv asosida amalga oshirildi. Shu sababli natijalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinadi: ular sabab-oqibat munosabatlarini emas, balki ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi oddiy chiziqli bog‘liqlik yo‘nalishini ifodalaydi (2-jadval).

1 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining e-GDDS valyuta kursi statistikasi, Milliy statistika qo‘mitasi (SIAT) ma’lumotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzildi [1], [2], [10], [11], [12], [13], [14].
Izoh: kurs o‘sishi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$\frac{Kurs_t - Kurs_{t-1}}{Kurs_{t-1}} \times 100$$

2-jadval. Kurs o‘sishi bilan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiyasi

| Ko‘rsatkichlar juftligi | r koeffitsiyenti | Talqin |
|---|---|---|
| Kurs o‘sishi, % — real YaIM o‘sish sur’ati, % | –0,80 | kuchli manfiy bog‘liqlik |
| Kurs o‘sishi, % — inflyatsiya darajasi, % | 0,56 | o‘rtacha musbat bog‘liqlik |
| Kurs o‘sishi, % — eksport hajmi, mln AQSH dollari | –0,73 | kuchli manfiy bog‘liqlik |
| Kurs o‘sishi, % — import hajmi, mln AQSH dollari | –0,76 | kuchli manfiy bog‘liqlik |
| Kurs o‘sishi, % — asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m | –0,66 | o‘rtacha manfiy bog‘liqlik |

Korrelyatsion tahlil natijalari kurs o‘sishi bilan real YaIM o‘sishi o‘rtasida manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi (r = –0,80). Bu holat, ayniqsa, 2020-yilda kurs o‘sishi yuqori bo‘lgan va real iqtisodiy o‘sish keskin sekinlashgan davr bilan izohlanadi. Kurs o‘sishi bilan inflyatsiya o‘rtasida o‘rtacha musbat bog‘liqlik kuzatildi (r = 0,56), bu esa valyuta qadrsizlanishi import narxlari orqali ichki narxlar darajasiga bosim o‘tkazishi mumkinligini bildiradi. Eksport, import va investitsiyalar bilan aniqlangan manfiy korrelyatsiyalar esa trend hamda davriy shoklar ta’siri sababli ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim.

Milliy valyuta kursining iqtisodiy o‘sishga ta’siri murakkab va ko‘p yo‘nalishli xususiyatga ega. Valyuta kursining moslashuvchan shakllanishi ayrim holatlarda eksport faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, eksportchi korxonalar xorijiy valyutada tushum olishi, ichki xarajatlarning muayyan qismi esa milliy valyutada shakllanishi natijasida eksport rentabelligini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yuzaga keladi. Bu esa tashqi savdo faolligini kuchaytirish va eksport salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston iqtisodiyotida ishlab chiqarishning ayrim yo‘nalishlari import qilinadigan texnologiyalar, uskunalar, xomashyo va ehtiyot qismlar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Mazkur holat valyuta kursi barqarorligini ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarish bilan uzviy bog‘laydi. Kurs dinamikasining muvozanatli shakllanishi korxonalarga xarajatlarni aniqroq rejalashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Valyuta kursi inflyatsion jarayonlar orqali ham iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil may oyida inflyatsiya darajasi 7,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, inflyatsion target 5 foiz darajasida belgilangan [3]. Shuningdek, Markaziy bankning 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan pul-kredit siyosati yo‘nalishlarida narxlar barqarorligini ta’minlash hamda inflyatsiyani o‘rta muddatli 5 foizlik targetga yaqinlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan [4]. Mazkur yondashuv makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sish uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Valyuta kursi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik investitsion muhit orqali ham namoyon bo‘ladi. Kurs dinamikasining nisbatan barqaror va prognoz qilinadigan shaklda rivojlanishi investorlar ishonchini mustahkamlab, uzoq muddatli investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni import qilish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlarida valyuta barqarorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish iqtisodiyotning tashqi omillarga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv eksportchilarning raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash, tashqi savdo muvozanatini saqlash hamda valyuta bozorida sog‘lom iqtisodiy muhitni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida milliy valyuta kursining bozor tamoyillari asosida shakllanishini ta’minlash va ayni paytda keskin tebranishlarni yumshatishga qaratilgan muvozanatli valyuta siyosatini amalga oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy yangilik

Tadqiqotning ilmiy yangiligi milliy valyuta kursi dinamikasining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini bir tomonlama, ya’ni faqat eksportni rag‘batlantiruvchi omil sifatida emas, balki ko‘p kanalli makroiqtisodiy mexanizm sifatida baholashda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda valyuta kursining o‘zgarishi eksport raqobatbardoshligi, import tannarxi, inflyatsiya bosimi, investitsion muhit va tashqi qarz yukiga ta’sir qiluvchi kompleks omil sifatida talqin qilindi.

Maqolada O‘zbekiston sharoitida milliy valyuta kursining iqtisodiy o‘sishga ta’siri importga bog‘liqlik darajasi bilan uzviy bog‘liq ekani ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, milliy valyuta kursining moslashuvchan shakllanishi ayrim holatlarda eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkonini bersa-da, import qilinadigan texnologiyalar, asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, xomashyo va energiya resurslari ulushi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotda kurs

dinamikasi ishlab chiqarish xarajatlari va narxlar barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlandi. Shu nuqtai nazardan, valyuta kursi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, valyuta kursini sun'iy ravishda qat'iy darajada ushlab turishdan ko'ra, bozor mexanizmlariga moslashgan va keskin tebranishlarni yumshatishga qaratilgan moslashuvchan valyuta siyosati iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun maqbul yondashuv sifatida asoslandi. Mazkur yondashuv iqtisodiyotning tashqi omillarga moslashuvchanligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Shuningdek, maqolada valyuta kursi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda faqat nominal kurs o'zgarishlari bilan cheklanib qolmasdan, balki real iqtisodiy sharoitlar, inflyatsiya darajasi, tashqi savdo tarkibi, ishlab chiqarishning importga bog'liqlik darajasi hamda investitsion faollik kabi omillarni kompleks ravishda hisobga olish zarurligi asoslab berildi. Bunday yondashuv valyuta siyosatining iqtisodiy o'sish jarayonlariga ta'sirini yanada chuqurroq va obyektiv baholash imkonini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy valyuta kursi dinamikasi iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur bog'liqlik ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning murakkab va o'zaro uyg'un mexanizmlar asosida shakllanishini namoyon etadi. Korrelyatsion tahlil natijalari valyuta kursi o'zgarishlari bilan real YaIM dinamikasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi hamda ushbu yo'nalishda yanada chuqur ekonometrik tadqiqotlar olib borish uchun muhim ilmiy asos yaratdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari valyuta siyosati va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omillardan biri ekanini tasdiqlaydi.

2018–2024-yillarda AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha kursi oshib borgan bo'lsa-da, O'zbekiston iqtisodiyoti turli tashqi va ichki omillar ta'sirida barqaror rivojlanish tendensiyasini saqlab qoldi. Xususan, 2020-yilda global pandemiya va xalqaro iqtisodiy sharoitlarning murakkablashuvi iqtisodiy faollikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish jarayonlari izchil davom etdi. 2021–2025-yillarda YaIMning real o'sish sur'atlari yuqori darajada shakllanib, iqtisodiyotning moslashuvchanligi va barqaror rivojlanish salohiyatini namoyon etdi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, valyuta kursining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirish uchun eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, importga bog'liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirish, inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish hamda valyuta risklarini samarali boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, valyuta siyosatini narxlar barqarorligi, iqtisodiy o'sish va tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi muvozanatli va bozor tamoyillariga asoslangan yondashuv asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston sharoitida valyuta siyosatini iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi samarali omilga aylantirish uchun makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlash va valyuta kursining keskin tebranishlarini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish muhimdir. Bunda Markaziy bank tomonidan bozor mexanizmlarini saqlagan holda amalga oshirilayotgan ehtiyotkor va muvozanatli intervensiya siyosati valyuta bozoridagi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy valyuta kursining o'zgarishlari ishlab chiqarish xarajatlariga minimal ta'sir ko'rsatishi uchun import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat tarmoqlarida mahalliylashtirish darajasini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, texnologik uskunalar, butlovchi qismlar va sanoat xomashyosiga bog'liq tarmoqlarda mahalliy ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish ham iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir. Xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar, xizmatlar, raqamli xizmatlar hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat mahsulotlari eksportiga bosqichma-bosqich o'tish milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi va tashqi iqtisodiy omillarga nisbatan barqarorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, korxonalar faoliyatida valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish ham dolzarb ahamiyatga ega. Bank tizimida forward, swap va boshqa hedjirlash instrumentlarini kengaytirish, eksport-import operatsiyalarida risklarni oldindan baholash mexanizmlarini joriy etish hamda tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish iqtisodiy samaradorlikni yanada mustahkamlaydi.

Valyuta siyosatini inflyatsion targetlash siyosati bilan uyg'unlashtirish uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Valyuta kursi, narxlar barqarorligi va ichki talab o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda olib boriladigan muvozanatli siyosat iqtisodiy o'sishning barqaror va izchil davom etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *2025-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o‘sdi.* — 2026-yil 27-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Exchange Rate — National Currency per US Dollar, Period Average.* — Markaziy bankning e-GDDS statistik ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Inflation, Policy Rate and Inflation Target Indicators.* — 2026-yil may holati.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Monetary Policy Guidelines for 2026–2028.* — Pul-kredit siyosati yo‘nalishlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti: 2025-yil yanvar–dekabr.* — Press-reliz, 2026-yil 26-yanvar.
6. World Bank. *GDP Growth (Annual %) — Uzbekistan.* — Jahon banki ma’lumotlar bazasi.
7. International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: Selected Issues and Country Reports.* — Washington, D.C.: IMF.
8. Asian Development Bank. *Asian Development Outlook: Uzbekistan.* — Manila: Asian Development Bank.
9. Paul Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz. *International Economics: Theory and Policy.* — Pearson Education.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Iste’mol narxlari indeksi (turlari bo‘yicha) yillik dinamikasi (o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan), 2010–2020-yillar.* — SIAT statistik ma’lumotlari.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Iste’mol narxlari indeksi (turlari bo‘yicha) yillik dinamikasi, MIIT-2018 bo‘yicha, 2021–2025-yillar.* — SIAT statistik ma’lumotlari.
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Eksport hajmi (oylik), 2020–2025-yillar.* — SIAT statistik ma’lumotlari.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Import hajmi (oylik), 2020–2025-yillar.* — SIAT statistik ma’lumotlari.
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik), 2010–2024-yillar.* — SIAT statistik ma’lumotlari.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop journal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz